

## UMUMIY O`RTA TA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYA FANINI O`QITISHNI YANADA RIVOJLANTRISH CHORA TADBIRLARI

Iskandarova Iroda Raximbayevna

Xorazm viloyati Xiva tumani, 11-sonli maktabning Geografiya fan o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O`zbekistondagi umumiy o`rta ta`lim maktablarida geografiya fanini o`qitishni yanada rivojlantrish, fanning nufuzini oshrish yo`llari to`g`risida misollar keltrilgan.

**Kalit so'zlar:** geografiya, tabiiy, iqtisodiy, geografiya maydonchasi, fluger, borometor, harita, globus.

### MORE DEVELOPMENT OF GEOGRAPHY TEACHING IN GENERALSECONDARY SCHOOLS

### ABSTRACT

This article gives examples of ways to further develop the teaching of geography in secondary schools in Uzbekistan, to increase the prestige of the subject.

**Keywords:** geography, natural, economic, geographical area, fluger, borometer, map, globe.

### KIRISH

Hozirgi kunda yurtimizda har bir sohada keng ko`lamli islohotlar olib borilmoqda. Shu jumladan ta`lim sohasida ham kata o`zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa yurtboshimiz "Yangi O`zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" deb ta`kidlaganlari davlat miqyosida maktablarga naqadar katta e`tibor qaratilayotganidan dalolat berib turibdi. Har bir sohada bo`lganidek ta`lim sohasida ham, xususan maktablarda dars jarayonlarini tashkil etishda ham qisqa vaqt ichida ancha yutuqlarga erishildi.

Shu bilan birga hali qilinishi kerak bo`lgan ishlar anchaginga ekanligini ta`kidlashimiz mumkin. Ma`lumki, umumta`lim maktablarda 5 sinfdan 10 sinfgacha "Geografiya" fani o`qitiladi. Lekin hozirgi kunda o`quvchilarni geografiya faniga qiziqtirish oson emas.



Geografiya fani o`quvchilarni har tomonlama keng fikrlashga, dunyoni teran anglashga, tabiiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni to`liq tushunib yetishga o`rgatadigan fan desak, mubolag`a bo`lmaydi. Bundan tashqari ushbu fanni yaxshi bilgan, yaxshi o`zlashtirgan o`quvchi fikrlash doirasi ham har tomonlama boshqa o`quvchilarga nisbatan ancha yuqori bo`lishi amaliyotda isbotlangan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Afsuski, hozirgi kunda maktablarda moddiy texnik bazasida fizika, kimyo, biologiya fanlari kabi geografiya fanini o`qitishda kerak bo`ladigan asosiy o`quv qurollari yetishmaydi. Bundan tashqari maktablarda geografiya maydonchasi degan tushuncha allaqachonlar unutilib bormoqda.

Dars jarayonlarini olib borishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish dars jarayonini qiziqarli, mazmunli o`tishida katta samara berishi hech kimga sir emas. Ayni vositalar geografiya fani uchun ham juda muhim unsurlar hisoblanadi. Sababi tabiiy geografik obyektlarni tushuntirish jarayonida o`quvchiga o`rganilayotgan obyekt haqida faqat nazariy emas, balki axborot texnologiyalaridan foydalanib yangi inovatsion metodlar yordamida mavzu yoritilsa o`uvchining ongida yangi fikir va dunyoqarashni shakllanishiga yordam beradi va shu bilan bir qatorda o`rganilayotgan obektlarni qanday hudud ekanligini ko`rsatgan holda dars o`tilsa o`quvchiga yana ham tushunarli bo`ladi.

### **NATIJA**

Umuman olganda, geografiya fanini maktablarda nufuzini oshrish borasida ishlar juda ham oqsamoqda va muammolar yetarlicha. Xo`sh, geografiya fanini maktablarda nufuzini oshrish uchun qanday amaliy ishlar qilish kerak?

Birinchi navbatda xalq ta`limi vazrligi hududiy bo`linmalari joylarda ya`ni maktablardagi geografiya fanidan dars berayotgan geograf o`qituvchilarni qiynayotgan masalalarni o`rganishi talab etiladi. Maktablarda geografiya fani uchun moddiy texnik bazalari yetishmaydi, borlari ham hozirgi kun talabiga javob bermaydi.

Misol tariqasida, 5-sinflarni o`qitishda turli xil ko`rgazmali vositalar: vulqonlarni maketi, shomol yo`nalishini aniqlaydigan fluger aparati, bosimni o`lchaydigan barometr kabi jihozlarning yitishmasligi darsning sifatiga ta`sir ko`rsatmay qolmaydi. Hozirgi kunda maktablarda geografiya fanining o`qitilishidagi eng asosiy o`uv quroli bo`lgan geografik xaritalarning yitishmasligi hech kimga sir emas, borlari ham eski va maktab darsliklariga muvofiq kelmaydi.



Mavjud xaritalardan foydalanib mavzuni yoritish judayam mushkul. Ba`zi maktablarda umuman yo`q. Shu sababli har bir maktabda direktor jamg`armasidan bo`ladimi yoki xalq ta`lim vazirligi xuzuridagi jamg`armalar hisobidan bo`ladimi maktablarda geografiya fani uchun kerak bo`lgan xaritalar sotib olinishi kerak. Har bir maktabda geografiya maydonchasini tashkil qilish ham fanni rivojlantirish yo`lidagi ijobiy siljish bo`lib xizmat qiladi. O`quvchilar geografiya maydonchasida sinf xonasida olgan nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlab borishadi.

## **MUHOKAMA**

Bundan tashqari darsliklar masalasida 7-sinf O`rta osiyo tabiiy geografiyasi kursi shu yoshdagi sinf o`quvchilari uchun biroz murakkab yozilgan. Mavzular judayam murakkab o`quvchi ma`lumotlarni esda saqlab qololmaydi. Darslikda yoritilgan mavzularda turli xil ko`rgazmali rasmlar juda ham kam, uning o`rniga esa esda saqlab qolish qiyin bo`lgan jadvallar kiritilgan. Ushbu darslikni ham yangicha zamonaviy ko`rgazmali vositalar yordamida boyitilgan malumotlar asosida qayta ko`rib chiqish va kamchliklarini bartaraf etish zarur.

## **XULOSA**

Shu o`rnida aytganda, geografiya fanini maktablarda nufuzini oshirish, o`quvchilarni ushbu fanga qiziqtirish uchun qilinishi kerak bo`lgan ishlar hali anchagina. Fanni rivojlantirishda birinchi navbatda, kuchli geograf o`qtuvchi pedagoqlarning ahamiyati beqiyos hisoblanadi.

## **REFERENCES**

1. Jurayeva, L. V., & Yeshinbetova, G. A. (2020). NOZOOGEOGRAFIK VAZIYATNI YAXSHILASHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA EKOLOGIK MUAMMOLARNI O`RGANISH PRINSIPLARI. Academic research in educational sciences, (4), 630-638.
2. Komilova, N. K., Haydarova, S. A., Xalmirzaev, A. A., Kurbanov, S. B., & Rajabov, F. T. (2019). Territorial Structure of Agriculture Development in Uzbekistan in Terms of Economical Geography. Journal of Advanced Research in Law and Economics, 10(8 (46)), 2364-2372.
3. Иброимов, Ш. И. Ў., & Болтаев, М. Ж. (2020). Ўзбекистон тоғ-водийларининг экотуристтик имкониятлари ва улардан фойдаланиш. Academic Research in



Educational Sciences, (1).

4. Shernayev Akbar (2020/1/30) Abstracts of V International Scientific and Practical Conference Osaka, Japan 29-31 January 2020,189-193.

5. Rajabov Furkat Turakulovich, Sattarov Abdisamat Umirkulovich (2020) FARMS OF UZBEKISTAN: DEVELOPMENT, SPECIALIZATION, GEOGRAPHY. Journal of Critical Reviews, 7 (6), 1189-1196.

6. Sherzod Ibroim Ogli Ibroimov, & Abdurauf Abdurahim Ogli Yusubaxmedov (2020). O'ZBEKISTON HUDUDINI TIBBIY-GEOGRAFIK BAHOLASH

USULLARI. Academic research in educational sciences, (4), 418-424.

7. Oybek Uralovich Abdimurotov (2020). TABIIY GEOGRAFIYA DARSLARINI MUSTAQIL O'RGANISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, (3), 1306-1312.

8. Ibroimov, S., & Madaminova, M. (2020). Maktablarda geografiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Academic research in educational sciences, (1).

9. Radjabov, F. (2020). Describe the Individual Food Industry Contents and their Role in the Delivery of Agricultural Products. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 19(1), 292-294.

10. Шерзод Иброим Ўғли Иброимов, Мансур Фарманович Бўрибеков, & Мақсуда Анвар Қизи Сатторова (2020). ЁШ АВЛОДГА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИНГ MAЗМУН-МОЊИЯТИНИ ЕТКАЗИШ. Academic research in educational sciences, (3), 275-279.

11. Turakulovich RF (2020). Dynamics and Regional Features of Agricultural Production. In the Republic of Uzbekistan. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24 (2), 1264-1269.

12. Ibroimov, S. I. (2020). BUGUNGI KUNDA PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNING AHAMIYATI VA ULARNI TARIX DARSLARIDA QO'LLANILISHI. Academic research in educational sciences, (4), 59-63. 13. Фуркат Ражабов, Лобар Джўраева, & Асрор Махмадалиев (2020). ЎЗБЕКИСТОН ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИ: РИВОЖЛАНИШИ, ИХТИСОСЛАШУВИ, ГЕОГРАФИЯСИ. Academic research in educational sciences, (3), 674-686.



14. Шерзод Иброимов, Маҳмуд Болтаев, & Мақсуда Сатторова (2020). МАКТАБ

ЎҚУВЧИЛАРИ ОНГИДА РЕКРЕАЦИЯ ТУШУНЧАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Academic research in educational sciences, (3), 146-151.

15. Фуркат Туракулович Ражабов, & Азиза Абдуллаевана Олимова (2020). ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ЕЧИМИДА ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРНИНГ АҲАМИЯТИ (ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, (3), 697-702.

16. Шерзод Иброим Ўғли Иброимов (2020). РЕКРЕАЦИЯ ВА ЭКОТУРИЗМ ЖИҲАТЛАРИ (САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ) МИСОЛИДА. Academic research in educational sciences, (4), 486-491.

17. Sharipov Shavkat Mukhamajanovich, Shomurodova Shahnoza Gayratovna, Gudalov Mirkomil Ravshanovich (2020) THE USE OF THE MOUNTAIN KARS IN THE TOURISM SPHERE IN CORT AND RECREATION ZONE OF CHIMGAN-CHARVAK. Journal of Critical Reviews, 7 (3), 475-481.

18. Шерзод Иброим Ўғли Иброимов (2020). ГЕОГРАФИЯ ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАР БИЛИМИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ УСУЛЛАРИ. Academic research in educational sciences, (4), 412-417.

19. Шомуродова Шахноза Гайратовна Природные озера Тянь-Шаня в зоне отдыха Чимган-Чарвак // Европейское научное обозрение. 2018. №9-10-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-natural-lakes-at-the-tianshan-mountains-covered-in-chimgan-charvak-recreation-zone> (дата обращения: 15.12.2020).

